

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Loiq Sheralli she'ryatida vatan vasfi va vatanparvarlik.

Sodiqjon Ro'zmatov

CHDPU 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Hikmat Hikmatov

CHDPU adabiyotshinoslik kafedrasi o'qituvchisi

ANNOTATSIYA: *Loiq Sheralli o'zining ko'p ma'noli, dilkash she'rlari bilan tojik adabiyotining rivojiga o'z hissasini qo'shgan. U 1941-yil 20 mayda Tojikistonning Panjakent nohiyasi, Mazori Sharif dehasida tug'ilgan. Bolalik davri o'zining dehasida o'tgan. Loiq bolalikdan she'riyatga qiziqar edi. U Abdullo Rudakiy, Kamol Hujandiy, Umari Xayyom, Hofizi Sheroziy, Sa'diy Sheroziy, Abdurahmon Jomiy va boshqa adiblarning she'riyatidan bahramand bo'lган. Uning yozgan she'rlari hozirgi kunda, ko'pchilik talabalar va kitobsevarlar tomonidan o'qib borilyapti. Uning ko'p she'rlari onalarga bag'ishlangan. U 2000-yil 30 iyunda Dushanbe shahrida vagot etgan.*

Kalit so'zlar: *dilkash, kitobsevar, adib, deha, talabalar, bahramand, bolalik, xushbaxt, ozod, parvoz, vatan.*

Loiq Sheralli she'ryatida vatan vasfi asosiy urinni egallaydi. Agar shoir vatan haqida gapirsa, xuddiyki qushning baland parvozidek parvoz qiladi. Har bir qushning o'z uyi bo'lganidek, Loiq qushining uyi Tojikiston edi:

Yoron hama jo vale, Vatan dar yak jost,

/Yoron hama yerda, ammo vatan bir joyda/

Har sangi Vatan misoli haykal zebost.

/Vatanning har bir toshi, haykal kabi guzaldir/

Olam hama jo aziz, lekin bar man

/Olam hamma yer aziz, lekin menga/

Modar yaktost, Tojikiston yaktost.

/Ona bittadir, Tojikiston bittadir/

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Loiq Tojikistonni o'zining Vatani hisoblaydi, uning nazarida uning har bir toshi haykal kabi guzaldir. Tojik shoiri Mirsaid Mirshakar shunday yozgan edi: "Rostini aytsam, men uchun buyuk Vatanimning boshlanishi, bir kichik dehadakiy unda tug'ilib, gapirib, yul yurish, kuchaga chiqib tengdoshlar bilan uynash, yaxshini yomondan farqlash, o'z do'stlarimning g'amiga sherik bo'lish, yaxshi ko'rish va yomon ko'rishni o'rgandim". Loiq ham o'zining she'rlarida, vatanini qadrlaydi, uni himoya qilish, unga munosib hissa qushishni ta'kidlab utadi. Uning aqidasiga ko'ra Vatan mayda narsalardan, beshikdan, onaning pok sutidan, ostonadan, otaning uy tomidan boshlanadi. Shuning uchun, Vatan bizning yaxshi lahzalarimiz, xotirjamligu ozodligimiz va xushbaxtligimizdir:

Vatan sar meshavad az gahvora,
/Vatan boshlanadi beshigdan/
Zi shiri poki pistoni modar.
/Onaning pok sutidan/
Vatan sar meshavad az on tavora,
/Vatan boshlanadi ana u devordan/
Ki onro soxta dastoni modar.
/Gar uni yasab, ona qullari/
Vatan behbudiyu behro'ziyi most,
/Vatan bizning baxtimiz, saodatimiz/
Vatan xushnomiyu firuziyi most.
/Vatan bizning obruyimiz, g'alabamizdir/
Vatan sar meshavad z-ogardi dehqon,
/Vatan boshlanadi, dehqon arig'idan/
Zi "mayda"-hoyi xirmanbodgardho
/Kichik xirman joylardan/
Vatan sar meshavad az burdayi non,
/Vatan boshlanadi non burdasidan/
Ki mo xo'rdem az xonayi padarho.
/Bizlar yedik otalar uyidan/

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Vatan--diljamiyu ozodiyi most,
/Vatan bizning xotirjamligimiz, ozodligimizdir/
Vatan--xushbaxtiyu obodiyi most,
/Vatan xushbaxtligimizu obodligimizdir/
Vatan sar meshavad z-on ostone,
/Vatan boshlanadi ostonadan/
Ki bar dunyoyi ravshan po nihodem.
/Yorug' dunyoga qadam quydik/
Vatan sar meshavad z-on pardabome,
/Vatan pardali tomdan boshlanadi/
Ki parvoziy shudem par kushodem.
/Parvoz qildigu qanot ochdik/
Vatan-imro'zi mo, oyandayi most,
/Vatan bizning bugunimiz, kelajagimiz/
Panohi murdayi mo, zindayi most.
/Vafotimiz va tirikligimiz omonligidir/

Shu yozilgan she'rlarning ma'nosidan ham bilish mumkin, Loiq Sherali vatan vasfini juda yuqori darajaga kutarganini, uning avval beshikdan boshlanishini va shu holat ketma-ket kelishini ko'rish mumkindir. U vatanni bizning bugunimiz va ertamiz deb ta'riflaydi, darhaqiqat bizning vatanimiz tinj va obod bo'lsa, bu davlatning rivojlanishiga olib keladi. Bizning hayotga quygan birichi qadamimiz, kuchalarga chiqib tengdoshlar bilan uynashimiz, vatanning boshlanishidir. Albatta, vatanni sevmoq iymondandir, har birimiz bilim o'rganib, vatanga o'z hissamizni qo'shishimiz juda muhimdir.

Agar Loiq hayot haqida gapirsa, obrazli sodda kalomni kashf qilardi:

To nom fizoyi, nafsi xudro kam kun,
/Obruying oshadi, o'z nafsingi oz qil/
Odamgari kun, valek bo odam kun.
/Insoniylik qil, ammo inson bilan qil/
Meguft daravgare ba man vaqt darav:

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

/Aytardi g'alla o'rurvchi, g'alla o'rgan vaqtda/

Chun xushayi gandum ba zamin sar xam kun.

/G'alla donasi kabi boshingni yer eg/

REFERENCES

1. Абдуллоев А. Захири Форёбӣ. Душанбе, 1974; Адабиёти форс-точик дар нимаи аввали асри 11. Душанбе, 1979.
2. Акбаров Юсуф, Талаби ҳаёт ва қисмати адабиёт, Душанбе, 1977.
3. Амонов Раҷаб, Таърихи адабиёти тоҷик, Душанбе, 1982.